



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 10.01.2022 г. № 32

между Олот туман Электр тармоклари и Олот туман ирригация булими на общую сумму 1800000,00

Глава

Казначейский лицевой счёт

170

100022860062047042402170001

(в сумах)

| Наименование месяцев 2022 г. | Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации) | | Всего |
|---------------------------------|--|--|---------------------|
| | 4221000 | | |
| Январь | 599 850,00 | | 599 850,00 |
| Февраль | 599 850,00 | | 599 850,00 |
| Март | 600 300,00 | | 600 300,00 |
| Апрель | | | |
| Май | | | |
| Июнь | | | |
| Июль | | | |
| Август | | | |
| Сентябрь | | | |
| Октябрь | | | |
| Ноябрь | | | |
| Декабрь | | | |
| Всего за год | 1 800 000,00 | | 1 800 000,00 |

Всего 1800000,00 сум

Один миллион восемьсот тысяч сум 00 тийин

сумма прописью

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный 100 % . от указанной выше суммы который необходимо оплатить до 30 числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

Главный бухгалтер заказчика

Шарипов Шерзод Рустамович

Ф.И.О.

(подпись)

Зарипов Йулдошали Насруллоевич

Ф.И.О.

(подпись)

Принял работник казначейского
подразделения

(подпись)

«___» 20 ___ г.

Получил работник
заказчика

(подпись)

«___» 20 ___ г.

BYUDJET TASHKILOTLARI UCHUN ELEKTR ENERGIYA TA'MINOTI SHARTNOMASI

32 - sonli

Olot shaxri

2022 yil "10" yanvar

Olot tuman Elektr tarmoqlar korxonasi (keyingi o'rinnlarda "Korxona"(energiya bilan ta'minlovchi tashkilot nomi) (deb yuritiladi) ning nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **G. E.Nabiiev** bir tarafdan va **Olot tuman Irrigatsiya bo'limi** (energiya ta'minoti tashkiloti rabbarining F.I.Sh.) (*Energiya iste'molchisining nomi*)(keyingi o'rinnlarda "Iste'molchi" deb yuritiladi) ning nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **SH. Sharipov** ikkinchi tarafdan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1 Ushbu shartnoma bilan Korxona tutashtirilgan tarmoq orqali Iste'molchiga elektr energiyasi (keyingi o'rinnlarda "Energiya" deb yuritiladi) berib turish majburiyatini, Iste'molchi esa qabul qilingan Energiya haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2 Ulangan quvvati 750kVA va undan katta bo'lgan sanoat va ularga tenglashtirilgan Iste'molchilar olingen Energiyadan tashqari, yana talab etilgan har bir kVt yoki yagona elektr energiyasi tizimining yuklamalı soatlarida qatnashuvchi haqiqiy maksimal quvvat (keyinchalik "Quvvat") uchun haq to'laydi.

II. ENERGIYA MIQDORI

2.1 Energiya iste'molining yillik shartnomavni hajmi **4000** kVt.s. ni tashkil qiladi.*

2.2 Shartnoma tuzilgan kunida etkazib beriladigan Energiyaning umumiy narxi **1 800 000** so'mni, Quvvatning narxi **450** so'mni (amalda bo'lgan tarif asosida) tashkil qiladi.

Shundan, byudjet mablag'lari hisobidan **1800000** (**Bir million sakkiz yuz ming**) so'm, Byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **0** so'm.

2.3 Korxona Iste'molchiga Energiyani (Quvvatni) ushbu shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan miqdorda etkazib beradi.

2.4 Korxona tomonidan Iste'molchiga etkazib berilgan Energiya (Quvvat) miqdori Energiyani (Quvvatni) hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi (2-ilova).

Hisobga olish priborlari, shuningdek Korxona bilan Iste'molchilarning hisob-kitob qilishiga mo'ljallangan Energiya va Quvvatni hisobga olishning boshqa vositalari Korxonaning Energiya iste'molini avtomatlashtirilgan hisobga olish va nazorat qilish tizimi bilan mos kelishi, Iste'molchining hisobidan sortib olinishi, daylat qiyoslovidan o'tishi va o'rnatilishi, bundan keyin esa Korxona vakili tomonidan ro'yxtagi olinishi va tamg'alanishi kerak.

2.5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrdagi 277-soni qarorining 1-ilovasidagi Tabiiy monopoliyalar sub'ektlari tomonidan majburiy xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan Iste'molchilar uchun Energiya ta'minotining yillik minimal hajmi **4000** kVt.s.ni tashkil qiladi.

III. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1 Etkazib berilgan Energiya va Quvvat uchun hisob-kitob davri bir oy.

3.2 Korxona va Iste'molchi o'ttasida hisob-kitob qilish uchun aktiv va reaktiv energiya, shuningdek Quvvatning hisobga olinishi elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida amalga oshiriladi (3-ilova)

Agar Energiyani (Quvvatni) hisobga olish pribori balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmog'ining chegarasidan hisobga olish pribori o'rnatilgan joyigacha bo'lgan uchastkadagi Energiyaning texnologik sarsining hajmi Iste'molchi bilan birqalikda hisoblash yo'lli bilan dalolatnomaga tuzilgan holda (4-ilova) aniqlanadi va haq to'lashda ushbu elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab, Korxona va Iste'molchi hisobiga o'tkaziladi.

3.3 Korxona Iste'molchi bilan birgalikda har oyda energiya va quvvatning haqiqiy sarfini aniqlash uchun hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini yozib oladi.

3.4 Iste'molchi kelgusi hisob-kitob davriga u boshlanishidan oldin Energiya va Quvvatning shartnomaviy hajmi narxini 100 foizi miqdorida oldindan to'lovnii amalga oshirishi shart.

Iste'molchi hisob-kitob davrida haqiqiy iste'mol qilgan Energiya va Quvvat uchun shartnomada shartlaridan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladi va to'liq to'lovlarni navbatdagi oy boshlangunga qadar amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan Energiya va Quvvat uchun Iste'molchining qarz dorligi, shartnomada belgilangan miqdordan ko'p iste'mol qilinganligi uchun jarima va penya mayjud bo'lsa, oldindan to'lov sifatida o'tkazilgan mablag'lari qarz dorlikni tugatishga yo'naltiriladi va oldindan to'lov sifatida hisobga olinmaydi.

3.5 Korxona har oyning 25 sanasigacha Iste'molchi bilan birgalikda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini yozib olish bilan bir vaqtida, hisoblagichlarning tartib raqamlarini hamda amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda hisobotni rasmiylashtiradi (5-ilova).

Hisobot asosida Korxona tegishli hisob-kitobni amalga oshiradi (6-ilova) va Iste'molchi hisob-fakturani oladi.

Iste'molchida turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta ob'ekt mayjud bo'lgan taqdirda hisob-kitoblar har bir ob'ekt bo'yicha ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura yoziladi.

Hisob-kitob asosida amalga oshirilgan to'lovlarni hisobga olganda Iste'molchining qarz dorligi aniqlansa, Korxona xizmat ko'rsatuvchi bank orqali to'lovnii amalga oshirishi uchun akstept bilan to'lov talabnomasi beradi.

3.6 Iste'molchi tomonidan Energiya (Quvvat) iste'moli haqida hisobot taqdim etilmasa yoki hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari yozib olimmasa, Korxona tomonidan hisob-kitoblar iste'molning shartnomaviy miqdori bo'yicha, keyinchalik Iste'molchi bilan birga aniqlangan haqiqiy iste'mol qilingan Energiya uchun qayta hisob-kitob qilgan holda, amalga oshiriladi. Bunda, Korxona xizmat ko'rsatuvchi bankka belgilangan tartibda to'lov talabnomasi va hisob-fakturani taqdim etadi.

3.7 Aktiv va reaktiv Energiya (Quvvat) uchun hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 noyabrdagi 511-soni qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasi iste'molchilarini va energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlar o'ttasidagi o'zaro hisob-kitoblar tartibi to'g'risidagi Nizomga hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Elektr energiya tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.

Iste'molchilarini tegishli tarif guruhiga mansubligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 10 avgustda 955-ton bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Elektr va issiqlik energiyasi iste'molchilarining tarif guruhlari to'g'risida nizomga muvofiq belgilanadi.

3.8 Tariflar o'zgarganida Iste'molchi etkazib berilayotgan Energiya va Quvvat uchun yangi tarif kiritilgan kundan boshlab yangi tarif bo'yicha haq to'lashi kerak.

Ta'riflar o'zgarganda "Korxona" byudjetdan mablag' oluvechini xabardor qilishi va tomonlar yangi ta'riflar bo'yicha qo'shimcha kelishuv tuzishlari lozim. Qo'shimcha kelishuv tegishli G'aznachilik bo'linmasida o'rnatilganda tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, yangi ta'riflar bo'yicha haq to'lanadi.

Bunda, Iste'molchi tarif oshgan vaziyatda to'lov kunidan boshlab keyingi 12 oydan oshmagan muddatga oldindan to'langan Energiya miqdoriga qo'shimcha haq to'lashdan ozod etiladi.

3.9 Energiya (Quvvat) uchun Korxona va Iste'molchi o'ttasidagi hisob-kitoblar Iste'molchi tomonidan Korxonaning hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.10 Agar Iste'molchi Energianing bir qismini subiste'molchiga bir stavkali tarif bo'yicha etkazib bersa, u Korxonaga ushbu subiste'molchilarning energetika tizimining eng katta yuklamasida qatnashuvchi yuklamasi qiyomatiga kamaytirilgan Quvvat miqdori uchun haq to'laydi.

3.11 Reaktiv Energiya (Quvvat)ni o'rnnini to'dirish uchun chegirmalar (ustamalar) bitta hisobga olish nuqtasi bo'yicha o'rtacha oylik Energiyasi iste'moli 15 ming kWt soatdan ortiq bo'lgan sanoat iste'molchilarini va ularga tenglashtirilgan iste'molchilar, elektr lashtirilgan (elektr energiyasi bilan yuradigan) temir yo'l, shahar transporti, qishloq xo'jaligi iste'molchilariga nisbatan amalga oshiriladi.

3.12 Korxona va Iste'molchi har oyda navbatdagi hisob-kitob davri boshlanishi holatiga o'zaro solishtiruv dalolatnomasini tuzadi.

3.13 Energiya (Quvvat) iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning Avtomatlashirilgan tizimiga ulangan Iste'molchilarga Energiya (Quvvat) etkazib berish oldindan to'langan haq doirasida amalga oshiriladi.

3.14 Iste'molchining aybi bilan Energiya ushbu shartnomada talab etilgan hajmdan kam iste'mol qilinsa, oldindan to'langan mablag'lar qaytarilmaydi va keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

3.15 Hisobga olish pribori Iste'molchining aybi bilan buzilgan (plombasi buzilgan, oynasi singan va shu kabilar) hisobga olish priborini ishga tushirish sxemasi o'zgargan, hisobga olish priboridan tashqari elektr qabul qilgichlar ulangan yoki Energiya boshqacha usulda o'g'irlangan hollarda, birgalikda ikki tomonlama dalolatnoma rasmiylashtiriladi va shu asosda Korxona Iste'molchini elektr tarmog'idan uzib qo'yish huquqiga ega. Dalolatnoma asosida hisobga olish priborlari oxirgi marta o'zgartirilgan yoki ularni ularash sxemasi tekshirilgan kundan boshlab butun o'tgan, ammo da'vo muddatidan ko'p bo'limgan, davr uchun elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati va Iste'molchining 4-ilovada ko'rsatilgan ishlash soatlari bo'yicha Energiya sarsfi qayta hisoblab chiqilishi shart.

Korxona 3 ish kuni mobaynida Iste'molchiga to'lash uchun qo'shimcha to'lov xujjati yozib beradi, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lov xujjatlarini taqdirm qiladi.

Iste'molchi qo'shimcha to'lov xujjati bo'yicha to'lovni 10 kun muddatda amalga oshirmsa, Korxona ko'rsatilgan summani majburiy tartibda qonun asosida undirish choralarini ko'radi.

Hisobga olish pribori ko'rsatkichini yozib olish ularash sxemasini tekshirish deb hisoblanmaydi.

IV. ENERGIYANI CHEKLASH VA ETKAZIB BERILISHINI TO'XTATISH TARTIBI

4.1 Iste'molchi tomonidan Korxona bilan birgalikda, Energiyani cheklash va uzib qo'yish jadvallari yagona elektr energetikasi tizimida Energiya va Quvvat tanqisligi hollarida yagona elektr energetikasi tizimining barqaror parallel ishlashini ta'minlash, avariyalar yuzaga kelishining oldini olish hamda iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishini bartaraf etish uchun cheklash va uzib qo'yish jadvallari ishlab chiqiladi.

Uzib qo'yish jadvallari Iste'mochi tomonidan Korxona vakillaridan uzib qo'yish jadvallari joriy etilishi to'g'risidagi bildirishnomma olingandan keyin darhol analga kiritiladi.

Ushbu bildirishnomma Iste'molchi tomonidan bajarilmaganda, Korxona Iste'molchini ogohlantirgandan keyin Energiya va Quvvat iste'molining belgilangan darajada kamayishini ta'minlovchi miqdorda Energiya bo'yicha majburiy ravishda cheklaydi.

4.2 Elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlaridagi avariyalarning oldini olish va bartaraf etish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarur bo'lqanda, Iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq uni darhol xabardor qilgan holda, Energiya uzatishda uzib qo'yish yoki cheklashlarga ruxsat etiladi.

4.3 Quyidagi hollarda Korxona Iste'molchiga Energiyaning etkazib berilishini to'xtatish va uzib qo'yish oqibatlari uchun javob bermaslik huquqiga ega:

a) Energiya (Quvvat) shartnomaviy miqdordan ko'p sarflanganida yoki Energiya (Quvvat) iste'molining belgilangan rejimi buzilganda;

b) elektr ta'minoti shartnomasini tuzmasdan Energiya iste'mol qilinganda;

v) "O'zstandart" agentligi tomonidan qiyoslashdan o'tkazilgan Energiyani hisobga olish priborlari bo'limganda;

g) Energiya (Quvvat) uchun shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lov to'lanmaganda;

d) Korxona tarmoqlariga elektr qabul qilgichlar o'zboshimchalik bilan ulanganda yoki Quvvat shartnomada belgilangan miqdordan oshirib yuborilganda;

e) elektr qabul qilgichlar hisobga olish priboridan tashqari ulanganda yoki Energiyani hisobga olish sxemasi buzilganda, shu jumladan hisobga olish priborlarining va o'lehash transformatorlarining plombalari buzilganda;

j) Korxona vakili hisobga olish priborlarini ko'rishga qo'yilmaganda.

4.4 Elektr manbaidan uzib qo'yilishi texnogen va avariya oqibatlariiga olib keladigan, o'ta xavfli va uzuksiz texnologik jarayonli (maxsus tartibda Energiya etkazib beriladigan korxonalar

ro'yxatiga kiritilganlar) sanoat korxonalarida qarzdorlik paydo bo'lgan taqdirda haq to'lanchaganligi uchun Energiya etkazib berishni cheklash, belgilangan tartibda, elektr ta'minotining texnologik va avariya bronigacha, to'liq uzib qo'yish esa – faqat sud qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

4.5 Barcha yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatlarda yagona elektr energetika tizimi elektr tarmoqlariga qayta ularash va Energiya etkazib berilishini tiklash ishlari Iste'molchi tomonidan shu bilan bog'lik xaratjatlar qoplanganidan keyin navbat bilan amalga oshiriladi.

V. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1 Iste'molchingin huquqlari:

a) Korxona tomonidan shartnomaviy majburiyatlarning shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarilishini talab qilish;

b) Energiyaning elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga shartnomada ko'rsatilgan miqdorda etkazib berishni talab qilish;

v) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida Energiyaning sisat ko'rsatkichlarini davlat standartlarida belgilangan darajada saqlashni talab qilish;

g) Korxonaning elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli Energiya bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uziishlar to'g'risida uzib qo'yishgacha kamida 3- surʼat oldin ogohlantirishni talab qilish;

d) Energiyaning tegishli miqdori uchun oldindan to'lov amalga oshirilgan taqdirda Energiyaning shartnomaviy miqdorini o'zgartirishni talab qilish;

e) Oldindan haq to'langanligidan qat'iy nazar Energiyaning shartnomaviy hajmini kamaytirish tomoniga o'zgartirishni talab qilish.

Bunday talabnomalar nazarda tutilayotgan o'zgartirishlardan (joriy oy tugashidan) 10 kundan kechikmay berilishi lozim.

5.2 Iste'molchingin majburiyatları:

a) shartnomaviy majburiyatlarini shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarish;

b) kelgusi hisob-kitob oyi uchun Energiya (Quvvat) hajmiga shartnomada belgilangan muddatda haq to'lash;

v) Elektr qurilmalarini zarur texnik holatini va Iste'molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatasiya qilishda Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya kilinishi hamda Energiyanadan oqilona foydalaniishini ta'minlash;

g) 7-ilovaga muvofiq kompensastiya qurilmalari ish rejimiga (reakтив energiya va quvvat iste'moli) riyoq qilish;

d) energetika tizimining eng katta yuklamalni soatlarida talab etilgan Quvvatdan oshmaslik.

Iste'molchi Korxonanining talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va xabar qilishi shart:

- iste'mol qilinayotgan Energiyaning (Quvvatning) sutkalik, oylik sarflari va haqiqiy miqdorini;

- yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamalni davrida reaktiv energiyaning (quvvatning) h so'm ar sutkali sarfi;

- yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamasining o'tish davrida Energiyaning (Quvvatning) har 30 daqiqadagi sarfi.

5.3 Korxona quyidagi huquqlarga ega:

a) shartnomada belgilangan tartibda va kerakli hajmda shartnomada majburiyatları bajarilishini talab qilish;

b) hisob-kitob davrining har qaysi kuniga o'zaro hisob-kitoblar solishtiruv dalolatnomasini tuzish.

5.4 Korxonaning majburiyatları:

a) shartnomaviy majburiyatlarini shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarish;

b) Energiyaning shartnomada belgilangan hajmda elektr tarmoqlarining balans mansubligi chegarasigacha uzlusiks etkazib berish;

v) Iste'molchilarga Energiyaning etkazib berishning to'xtatib turilishi va buning sabablari to'g'risida ma'lum qilish;

g) joriy etiladigan cheklashlar haqida, cheklashning hajmi va vaqtini ko'rsatgan holda, o'z vaqtida xabar qilish;

d) Iste'molchilarning Energiya kerakli miqdorda etkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar haqidagi arizalarini olingen kundan boshlab o'n kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqish, ularni bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

e) Iste'molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq 5 kun muddatda oylik shartnomaviy miqdorga o'zgartirishlar kiritish, Energiyaning oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish), imkoniyati bo'limgan taqdirda esa bu to'g'risida Iste'molchiga rad etishning sababini ko'rsatgan holda yozma shaklda xabar qilish.

VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI VA FORS-MAJOR

6.1 Shartnomani bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida etkazilgan haqiqiy zarar aybdor taraf tomonidan ikkinchi tarafga to'lanishi shart.

6.2 Energiyanı etkazib berish muddatlar o'tkazib yuborilsa yoki Energiya shartnoma miqdorining 5 foizidan ortiq miqdorda etkazib berilmasa, Korxona har bir muddati o'tkazib yuborilgan kun uchun Iste'molchiga bajarilmagan majburiyatlari summasining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan Energiya narxining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya to'lanishi Korxonani shartnomasi shartlarini kerakli hajmda bajarishdan va etkazib berish muddatining uzaytirilishi yoki Energiyaning kerakli hajmda etkazib berilmasligi natijasida etkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

6.3 Etkazib berilgan Energiya uchun o'z vaqtida haq to'lamasa, Iste'molchi Korxonaga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov summasining 0,1 foizi (Energiya maxsus tartibda etkazib beriluvchi korxonalar uchun 0,2 foiz) miqdorida penya to'laydi. Bunda, penyaning umumiy summasi muddati o'tkazib yuborilgan summaning 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya hisob-kitob davridan keyingi oyning tugaganidan keyin boshlab hisoblanadi.

6.4 Iste'molchi hisobot davrida shartnomada ko'rsatilgan miqdorga nisbatan 5 foizdan ortiq Energiya iste'mol qilganda, hisob-kitob davri uchun shartnomada ko'rsatilgandan ortiq iste'mol qilingan jami hajm uchun belgilangan tarifning 50 foizi miqdorida Korxona foydasiga jarima to'laydi (6.5-banda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno).

6.5 Ushbu shartnomada belgilangan Energiyaning tegishli hajmi uchun oldindan to'lovnii amalga oshirish sharti bilan Iste'molchining taklifi bo'yicha hisob-kitob davri tugashidan 10 kun oldindan kechiktirmasdan Energiyaning shartnomaviy hajmlariga kiritilgan o'zgartirishlar shartnomada belgilangan hajmdan ko'p iste'molga kirmaydi.

6.6 Korxona:

a) Iste'molchi Energiya iste'molining belgilangan rejimiga rioxcha qilmay, Energiya iste'moli yoki Quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'yan, Korxonasi tomonidan belgilangan Energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarmagan sutkalarda past sifatlari Energiya etkazib berilganligi uchun;

b) zaxira manbaini avtomatik ulash, avtomatik qayta ulash va avtomatik davr-tezlikli o'chirishlarning ishlash vaqtida Energiyanı etkazib berishdagi tanaffuslar uchun Iste'molchi oldida moddiy javobgar bo'lmaydi.

6.7 Iste'molchining yagona elektr energetika tizimining eng katta kuchlanishli soatlarda amaldagi yuklamasi shartnomada nazarda tutilgan ko'rsatkichdan 5 foizdan ortiq bo'lgan taqdirda, hisob-kitob davrinining oxirida amaldagi yuklamaning ortiqcha butun qismi uchun qayta hisob-kitob qilinadi va belgilangan tarifning 50 foizi miqdorida qo'shimcha haq undiriladi.

Qo'shimcha Quvvatga haq to'lanishi kelgusida har bir aniq vaziyat uchun Korxonadan tegishli ruxsat olmasdan ushbu shartnomada talab etilganidan ortiq Quvvatdan foydalanish huquqini bermaydi.

6.8 Taraflar shartnomani fors-major holatlari, ya'ni engib bo'lmaydigan kuch (favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydilar.

VII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

7.1 Mazkur shartnomasi ikki nusxada tuzilib, taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi. (Byudjet tashkilotlari uchun G'aznachilik bo'limmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagisi 594-sonli qaroriga muvofiq, majburiy ro'yxatga olingen kundan boshlab kuchga kiradi)

7.2 Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.3 Shartnomani bir yil muddatga tuziladi. Shartnomani amal qilish muddati tugagach, taraflardan biri uni bekor qilish yoki o'zgartirish haqida ariza bermasa, u shartnomada nazarda tutilgan muddatga va shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi. Bunday ariza shartnomani amal qilish muddatining oxirgi oyi mobaynida taqdim qilinishi lozim.

Shartnomani yangi muddatga uzaytirilganida uning shartlari taraflar kelishuviga binoan o'zgartirilishi mumkin. (Byudjetdan mablag' oluvechilar uchun 2016 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2850-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari"ga asosan amal qilish muddati "31" dekabr 2022 yilgacha belgilanadi).

7.4 Shartnomani bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnomani shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga faqat qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

7.5 Mazkur shartnomani bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2009 yil 22 avgustdagagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Elektr energiyasidan foydalanish qoidalari" va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

7.6. Ushbu shartnomani bo'yicha nizolar kelib chiqqan taqdirda, taraflar, qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish yuzasidan kelishilgan chora-tadbirlar ko'radilar.

Taraflar o'rtasida o'zaro hal qilinmagan nizolar qonunchilikda o'matilgan tartibda sud tartibda hal qilinadi.

VIII. Tomonlarning yuridik manzili va bank rekvizitlari.

«Korxona»

Olot tuman Elektr tarmoqlar korxonasi
(etkazib beruvchining (pudratchining) nomi)
Manzil: Olot tuman Do'stlik
ko'chasi 14-uy
Tel./faks 03653421236, 03653421154
Bank nomi Бухоро ў., АТ Саноат-Курилиш
банк Бухоро мин.ф.
MFO: 00086
STIR: 201188400
IFUT: 11170
X/p_22636000700/487303319

/ Rahbar



M.O'.

G. E.Nabihev

«Iste'molchi»

Olot tuman Irrigatsiya bo'limi
(buyurtmachi nomi)
Manzil: Olot tumani Olot kuchasi № 60 uv
shg'h* 100022860062047042402170001
Tel./faks 34-21-053
Tashkilotning STIR 305081695
MFO:00014 STIRi 201122919
IFUT 22100
G'aznachilik bo'linmasining nomi Olot tumani bo'yicha
G'aznachilik bo'linmasi
YaG'H23 402 000 300 100 001 010
Bank nomi: Markazly bank Toshkent shahar



Buyurtmachi rahbari

SH.SHaripov

2022 yil « 10 » yanvardagi 32-sonli
Energiya ta'minoti shartnomasiga
1-ilova

ETKAZIB BERILADIGAN ENERGIYA QUVVATI VA MIQDORI

Tarif guruhi IV

| | Elektr quvvati kVt | Elektr energiyasi miqdori | | Shu juladan tarif guruhlari bo'yicha | | | |
|-----------------|-----------------------|---------------------------|---------------|--------------------------------------|--|--|-------|
| | | Ming kVt soat | Ming kVt soat | | | | Aholi |
| Yil,Jami | 4000 | | | | | | |
| <i>I-chorak</i> | 4000 | | | | | | |
| Yanvar | 1333 | | | | | | |
| Fevral | 1333 | | | | | | |
| Mart | 1334 | | | | | | |
| <i>2-chorak</i> | 0 | | | | | | |
| Aprel | 0 | | | | | | |
| May | 0 | | | | | | |
| Iyun | 0 | | | | | | |
| <i>3-chorak</i> | 0 | | | | | | |
| Iyul | 0 | | | | | | |
| Avgust | 0 | | | | | | |
| Sentyabr | 0 | | | | | | |
| <i>4-chorak</i> | 0 | | | | | | |
| Oktyabr | 0 | | | | | | |
| Noyabr | 0 | | | | | | |
| Dekabr | 0 | | | | | | |

IMZOLAR:

ABONENT:



Rahbar

M.O.

SH.Sharipov

Rahbar

M.O.

TASHKILOT:



G. E.Nabihev

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Shartnoma № 32
2. Loyihaning nomi.

Olot tuman Elektr tarmoqlari korxonasi va Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Olot tuman irrigatsiya bo'limi o'tasida elektr energiyasini berib turish to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.
Shartnoma loyihasi Olot tuman Elektr tarmoqlari korxonasi va Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, Olot tuman irrigatsiya bo'limi tomonidan 19.01.2022 yil ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qab ul qilish maqsadga muvofiq.

**Olot tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh maslahatchisi**



V.B.Hazratqulov

2022 yil 20 yanvar